



Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2025-T1.0-005



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi sohalari bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malakalar ramkasi Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, Tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malakalar ramkasining vazifasi kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Mazkur Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 2-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 13-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi O'RQ-713-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi O'RQ-784-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5577-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-martdagi "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5963-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi "Ma'muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-151-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4040-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3646-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi PQ-4732-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-iyundagi "2021-2027-yillarda respublikadagi ko'p kvartirali uylarning lift uskunalarini ta'mirlash va yangilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 376-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5152-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-maydagi "Aholining ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-257-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi "Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-425-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-278-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-apreldagi "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-161-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi "Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-100-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-oktabrdagi "Qurilish sohasiga oid talablarni soddalashtirish hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 577-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-sentabrdagi "Shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalari mutaxassislarini sertifikatlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 460-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 214-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-apreldagi "Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 231-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar:

IFUT – 2.1 – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Qurilish sohasi — bino va inshootlarni loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash hamda ulardan xavfsiz foydalanishni ta'minlaydigan, zamonaviy texnologiyalar va me'yoriy talablar asosida faoliyat yurituvchi yirik tarmoqdir.

Soha infratuzilma obyektlari (yo'l, ko'priq, tunnel, gidrotexnik inshootlar), sanoat va fuqarolik binolari, uy-joylar, muhandislik kommunikatsiyalari, energetika va transport inshootlarini barpo etish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha texnik loyiha ishlab chiqish, smeta hujjatlarini tayyorlash, qurilish-montaj ishlarini olib borish, qurilish materiallari va texnikalaridan foydalanish, mehnat xavfsizligini ta'minlash, qurilish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, konstruksiyalarni sinovdan o'tkazish va sifat nazoratini amalga oshirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Qurilish sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, transport va sanoat infratuzilmasini kengaytirishda, uy-joy dasturlarini amalga oshirishda, shaharsozlik siyosatini rivojlantirishda hamda ijtimoiy soha obyektlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar — qurilish muhandislari, loyiha ishlab chiquvchilar, smetachi mutaxassislar, konstruktorlar, texnik nazoratchilar, qurilish ustalari, mexanizatorlar, geodezistlar, mehnat xavfsizligi bo'yicha muhandislar, yo'l va ko'priq qurilishi bo'yicha mutaxassislar hamda laboratoriya xodimlaridir.

Qurilish sohasi xalqaro standartlar va milliy qurilish me'yorlari asosida tashkil etilib, xavfsizlik, sifat, energiya samaradorligi, seysmik barqarorlik va ekologik tamoyillarga tayanadi.

Qurilish sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

E – seksiyasi Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish;

F – seksiyasi Qurilish sohasidagi faoliyat;

M – seksiyasi Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar.

O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichiga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	E – seksiya Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	36 Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	36.0 Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	36.00 Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	36.00.0 Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash
		37 Kanalizatsiya tizimi	37.0 Kanalizatsiya tizimi	37.00 Kanalizatsiya tizimi	37.00.0 Kanalizatsiya tizimi

2.	F – seksiya Qurilish sohasidagi faoliyat	41 Turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish	41.0 Turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish	41.00 Turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish	41.00.1 Turar joy binolarini qurish
					41.00.2- Yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish
		43 Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	43.1 Mavjud inshootlarni buzish va qurilish uchun maydonchalar tayyorlash	43.11 Binolarni qismlarga ajratish va buzish	43.11.0 Binolarni qismlarga ajratish va buzish
				43.12 Qurilish maydonchalaridagi tayyorgarlik ishlari	43.12.0 Qurilish maydonchalaridagi tayyorgarlik ishlari
			43.2 Elektrotexnik, chilangarlik va boshqa qurilish-montaj ishlari	43.21 Elektrotexnik va montaj ishlari	43.21.0 Elektrotexnik va montaj ishlari
				43.22 Suv bilan ta'minlash, isitish va havoni konditsiyalash tizimlarini montaj qilish	43.22.0 Suv bilan ta'minlash, isitish va havoni konditsiyalash tizimlarini montaj qilish
				43.24 Boshqa qurilish-montaj ishlari	43.24.0 Boshqa qurilish-montaj ishlari
			43.3 Pardoqlash qurilish ishlari	43.31 Suvoq ishlari	43.31.0 Suvoq ishlari
				43.32 Duradgorlik ishlari	43.32.0 Duradgorlik ishlari
				43.33 Pollarni qoplash va devor sirtini qoplash	43.33.0 Pollarni qoplash va devor sirtini qoplash
				43.34 Bo'yoqchilik va oyna solish ishlari	43.34.0 Bo'yoqchilik va oyna solish ishlari
				43.35 Boshqa pardoqlash ishlari	43.35.0 Boshqa pardoqlash ishlari
			43.4 Binolarni qurishda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	43.41 Tom yopish faoliyati	43.41.0 Tom yopish faoliyati
				43.42 Binolarni qurishda boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	43.42.0 Binolarni qurishda boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
			43.9 Boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	43.91 Tosh va g'isht terish faoliyati	43.91.0 Tosh va g'isht terish faoliyati
				43.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	43.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

3.	M – seksiya Ko'chmas mulk bilan operatsiya-lar	68 Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	68.1 O'z mulki bilan ko'chmas mulk bilan ishlar va qurilish loyihalarini ishlab chiqish	68.12 Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	68.12.0 Qurilish loyihalarini ishlab chiqish
----	---	--	--	---	---

Tarmoq malakalar ramkasi quyidagi kasbiy guruhlar va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	13213	Suv ta'minoti sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
2.	13214	Chiqindilarni yig'ish va tozalash sohalarida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
3.	13230	Qurilishda ishlab chiqarish va foydalanish uchun tarkibiy bo'linmalar rahbarlari
4.	21513	Issiqlik texnologiyalari bo'yicha muhandislar
5.	21610	Bino va inshootlar arxitektoralari
6.	31121	Qurilish sohasida texniklar (umumiy)
7.	31322	Suv tozalash inshootlari operatorlari
8.	31323	Oqava suvlar va kanalizatsiya tizimlari operatorlari
9.	31329	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan chiqindilarni yoqish pechlari, suv tozalash inshootlari va shunga o'xshash qurilmalar operatorlari, b.g.k.
10.	71120	G'isht teruvchilar
11.	71130	Sangtaroshlar
12.	71140	Betonchilar va mozaikachilar
13.	71150	Duradgorlar va o'xshash kasb egalari
14.	71190	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan qurilish va turdosh kasblar ishchilari, b.g.k.
15.	71210	Tom yopuvchilar
16.	71220	Pol usti qoplamalarini teruvchilar va qoplovchilar
17.	71230	Suvoqchilar
18.	71240	Issiqlik va tovush izolyatsiyasini taxlovchilar
19.	71250	Oynasozlar
20.	71262	Santexnik va suv ta'minoti tizimlarini o'rnatuvchilar
21.	71263	Quvur yotqizuvchilar
22.	71264	Suv va kanalizatsiya tarmoqlari kuzatuvchilari
23.	71265	Santexnik va texnologik tizimlarni ta'mirlovchi va xizmat ko'rsatuvchi chilangarlar
24.	71269	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan chilangar-santexnik va turdosh kasb ishchilari, b.g.k.
25.	71310	Bino va inshootlarning sirtlari bo'yoqchilari va shunga o'xshash kasblar ishchilari
26.	72119	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan qoliplovchilar va o'zakchilar, b.g.k.
27.	72121	Payvandlovchilar
28.	72141	Metall konstruksiyalarini o'rnatuvchilar va yig'uvchilar

29.	72149	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konstruksion material tayyorlovchilar va montaj qiluvchilar, b.g.k.
30.	72159	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan takelajchi va shu kabi kasblar ishchilari, b.g.k.
31.	72219	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan temirchilar, bolg'a va presslar temirchilari, b.g.k.
32.	72234	Maxsus jarayonlar va qurilmalar ishchilari
33.	73159	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan shishani qoliplovchilar, naqqoshlar, silliqlovchilar va sayqalloovchilar, b.g.k.
34.	74121	Elektromontyorlar (umumiy yo'nalish)
35.	74122	Lift, eskalator va boshqa ko'tarish mexanizmlari elektromontyorlari va elektromexaniklari
36.	75210	Yog'ochga birlamchi ishlov berish bilan band bo'lgan ishchilar
37.	81122	Tog' jinslariga ishlov berish va boyitish operatorlari
38.	81144	Beton-nasoslar va beton aralashtirgichlar operatorlari
39.	81149	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan beton, sement va boshqa mineral materiallardan mahsulot tayyorlash dastgohlari operatorlari, b.g.k.
40.	81811	Shisha qizdirish pechlari operatorlari
41.	81814	Shisha buyumlar ishlab chiqarish operatorlari
42.	81829	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan bug' dvigatellari va qozonxonalarning operatorlari, b.g.k.
43.	81890	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan sanoat qurilmalari va dastgohlari operatorlari, b.g.k.
44.	83429	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan yer qazuvchi va shunga o'xshash mashinalarning mashinistlari, b.g.k.
45.	83431	Kran va ko'tarish mashinalari operatorlari
46.	96290	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan malakasiz xodimlar, b.g.k.

3. Tarmoq tahlili

1. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining asosiy faoliyati:

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi "Ma'muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 151-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 214-son qarorida belgilab berilgan.

Xususan:

– shaharsozlik faoliyati sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar tayyorlash, shuningdek, soha faoliyatini rivojlantirishning uzoq va o'rta muddatli dasturlarni va normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tayyorlashda ishtirok etish;

– normativ-huquqiy hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda standartlarni ishlab chiqishni tashkil etish hamda tasdiqlashni amalga oshirish;

– shaharsozlik faoliyatining barcha bosqichlari raqamlashtirilishini ta'minlash, yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat xizmatlarini soddalashtirish va takomillashtirib borish;

– loyiha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoringini yuritish, yakka tartibdagi, namunaviy, takroran qo'llaniladigan eksperimental loyihalarni va energiya tejamkor loyiha yechimlari ishlab chiqishni tashkil etish, ular faoliyatini litsenziyalash hamda shaharsozlik hujjatlarining ekspertiza qilinishini ta'minlash;

– pudrat bozorini rivojlantirish, jumladan qurilish-pudrat tashkilotlarining ayrim faoliyatlarini litsenziyalash va ulush kiritish asosida quriladigan ko'p xonadonli uylarni ro'yxatga olishni muvofiqlashtirish, qurilish va uy-joy kommunal sohasida ruxsat etish va xabardor qilish tartibini muvofiqlashtirish;

– maqsadli dasturlarga kiritilgan obyektlarni monitoring qilish, loyiha va qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatida "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida davlat xaridlari hamda reyting tizimini yuritish;

– respublika hududida qurilayotgan bino va inshootlarning seysmik xavfsizligi ta'minlanishini shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiqligi baholanishini ta'minlash;

– uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

– ko'p kvartirali uylarni boshqarish, shu jumladan, ko'p kvartirali uy-joy fondini mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini, eski va avariya holatidagi uy-joylar buzilishini tashkil etishni muvofiqlashtirish hamda renovatsiya dasturlarini shakllantirish;

– hududlarni obodonlashtirish sohasi muammolarini o'rganish va metodologik ta'minlash;

– ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish;

– issiqlik ta'minoti sohasida yagona davlat siyosatini yuritish;

– sohada zamonaviy talablarga muvofiq kadrlar tayyorlash;

– ilg'or xorijiy tajribalar asosida xalqaro standartlarni joriy etish;

– issiqlik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha strategik takliflarni ishlab chiqish;

– sohada zamonaviy va energiya tejamkor texnologiyalarga asoslangan modernizatsiya va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqish.

Qurilish va kommunal sohani yanada taraqqiy ettirish borasida 2024-yilda jami 9 ta shahar, 43 ta shaharcha va 94 ta qishloqning bosh rejalari ishlab chiqildi.

Natijada, bosh rejalari bilan ta'minlash darajasi shaharlar bo'yicha 97 foizga, shaharchalarda 25 foizga, qishloqlar bo'yicha 22 foizga yetdi.

Sohaga oid texnik-normativ hujjatlarni zamonaviy talablar asosida yangilash va xalqaro normalarga uyg'unlashtirish maqsadida, 105 ta shaharsozlik norma va qoidalari, 56 ta standart hamda 4 ta texnik reglamentlar ishlab chiqildi.

Shuningdek, ish turlari, qurilish materiallari, mashina va mexanizmlari ko'rsatkichlarining yagona bazasini o'zida ifoda etgan "Qurilish resurslari milliy klassifikatori" ishlab chiqilib, tegishli tashkilotlarning ma'lumotlar bazalari bilan

integratsiya qilindi va onlayn ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi.

Mazkur klassifikatorga bugungi kunda 180 mingdan ortiq qurilish resurslari kiritilgan.

Birgina 2024-yilning o'zida "Yangi O'zbekiston" massivlarida va aholi talabgor hududlarda 2 044 ta zamonaviy ko'p qavatli uylar foydalanishga topshirildi

Shuningdek, ushbu uylarni muhandislik-kommunikatsiyalari bilan ta'minlash maqsadida:

- 63 km ichimlik va oqova suv tarmoqlari hamda 18 ta suv inshootlari;

- 68 km isitish tarmoqlari va 22 ta qozonxonalar barpo etildi.

Energiya tejamkor texnologiyalar, materiallar va loyiha yechimlaridan samarali foydalangan holda ijtimoiy soha obyektlarining 20 tipdagi namunaviy loyihalari ishlab chiqildi.

Ushbu zamonaviy loyihalar 404 ta ijtimoiy soha ob'ektlarida qo'llanildi.

"Shaffof qurilish" tizimi orqali 23 mingga yaqin obyekt loyihasi ekspertizadan o'tkazildi va natijada salkam 8 trln so'm mablag' loyihalarning smeta qismidan iqtisod qilindi.

Shuningdek, "Shaffof qurilish" platformasi orqali 44 mingdan ortiq obyektlar bo'yicha loyiha va pudrat tashkilotlarini aniqlash uchun onlayn elektron tenderlar o'tkazildi. Natijada, 2,477 mlrd so'm mablag' iqtisod qilindi (21.04.2025-yil holatiga).

2025-yil 20-aprel holatiga "Reyting elektron platformasi" ning mezonlari va ko'rsatkichlari takomillashtirildi va ushbu reytingga kiritilgan qurilish tashkilotlari soni 17,5 mingdan ortib, loyiha tashkilotlari soni 1800 taga yaqinlashdi.

2024-yilda Dastur doirasida 2 522 ta obyektida qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari olib borildi, obyektlarning 779 tasi (31 %) yildan-yilga o'tuvchi, 1 743 tasi (69 %) yangidan boshlanuvchi hisoblanadi (sohalar, buyurtmachilar hamda hududlar kesimidagi yig'ma jadvallar ilova qilinadi, 1 – 3-ilovalar).

Dastur doirasida 1 881 ta obyekt foydalanishga topshirildi. Foydalanishga topshirilgan obyektlarning:

1 074 tasi ijtimoiy soha obyekti hisoblanadi.

Xususan:

umumta'lim maktablari – 656 ta, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar – 8 ta, maktabgacha ta'lim tashkilotlari – 185 ta, tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar obyektlari – 154 ta, oliy ta'lim muassasasi obyektlari – 17 ta, sport obyektlari – 42 ta, madaniyat va san'at obyektlari – 9 ta, ilm-fan va innovatsiya obyektlari – 3 ta;

807 tasi ishlab chiqarish infratuzilmasi va boshqa turdagi obyekt hisoblanadi. Xususan:

ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tarmoqlari obyektlari – 93 ta, issiqlik ta'minoti obyektlari – 11 ta, avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgich obyektlari – 144 ta, temir yo'l transporti va metro obyektlari – 10 ta, irrigatsiya tarmoqlari va inshootlari obyektlari – 155 ta, melioratsiya tarmoqlari va inshootlari obyektlari – 50 ta, qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlari obyektlari – 68 ta, maxsus va kichik sanoat zonasini tashqari infratuzilma bilan ta'minlash obyektlari – 45 ta, ma'muriy bino va boshqa toifalangan

obyektlar – 67 ta, mudofaa va huquqni muhofaza qiluvchi organlar obyekti – 49 ta, turizm infratuzilmasi obyekti – 60 ta, “Yangi O‘zbekiston” va uy-joy massivlarini infratuzilma bilan ta’minlash obyekti – 55 ta.

Boshqaruv tashkilotlari mablag‘lari hisobidan 9 849 ta ko‘p kvartirali uylarda ta’minlash ishlari olib borildi.

Natijada 2 846 ta uyning tom qismi, 6 975 ta kirish yo‘laklari, 3 624 ta elektr shitlar, 1 022 ta uyning ichki muhandislik tarmoqlari, 3 833 ta yerto‘la qismidagi muhandislik tarmoqlari va 1 159 ta uyning fasad qismi ta’mirlandi.

Shuningdek, 2 075 ta kodli qulfli temir eshiklar, 317 ta kodli qulflar, 4 318 kv.m romlar va 4 279 ta sensorli lampalar o‘rnatildi.

Bundan tashqari, uylardagi 374 mingdan ortiq elektr xo‘jalik ob’ektlari xatlovdan o‘tkazilib, “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratildi. Shu asosda “qizil” toifadagi 108 mingdan ortiq shitlar mukammal ta’mirlandi.

Ko‘p qavatli uylardagi eskirgan 520 ta lift yangi va zamonaviysiga almashtirildi.

Bundan tashqari, ko‘p qavatli uylar va ular haqidagi ma’lumotlar jamlangan “Mening uyim” billing tizimi joriy qilindi.

2025-yil 5-fevral holatiga hududlarda faoliyat yuritayotgan 501 ta qozonxona va 3 500 km issiqlik tarmoqlaridan 16 mingga yaqin ko‘p qavatli uyga va 4 mingdan ortiq ijtimoiy soha obyektlariga 51,2 ming Gkal issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berildi.

Shuningdek, 14 ta investitsiya loyihasi doirasida 10 ta qozonxona va 68 km issiqlik tarmoqlarida qurilish-rekonstruksiya ishlari bajarilib, 14 ta isitish qozonlari o‘rnatildi.

Jahon banki ishtirokidagi loyihalar doirasida 10 ta isitish qozonlari qurib bitkazildi, 56 km issiqlik tarmoqlari yangilandi hamda 1 280 ta individual issiqlik punktlari o‘rnatildi.

2025-yil 1-yanvar holatiga Issiqlik tizimini qish mavsumiga tayyorlash doirasida 3 ta qozonxona, 736 ta qozon va 585 km issiqlik tarmoqlarini ta’mirlandi.

Qolaversa, barcha dasturlar doirasida 292 ta mahallada jami 1 342 km ichimlik suv tarmoqlari va 225 ta suv inshooti qurildi.

Vazirlik huzurida Shaharsozlik va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish, ularning bilimini davriy ravishda baholab borish maqsadida Kompetensiyani rivojlantirish instituti tashkil etildi.

Institut tomonidan qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi 10 ta yo‘nalish bo‘yicha 30 mingdan ortiq mutaxassislarni reja asosida o‘qitish bo‘yicha rivojlangan davlatlar mutaxassislari ishtirokida maxsus o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

Elektron tizim Bilim va malakalarni baholash agentligining elektron tizimi bilan integratsiya qilingan bo‘lib, o‘qishni tugatgan mutaxassislar testdan o‘tishi va sertifikat olishi bilan bog‘liq jarayonlar inson omili ishtirokisiz to‘liq raqamlashtirildi.

Testda yetarli ballni qo‘lga kiritgan mutaxassis “Shaffof qurilish,, milliy axborot tizimi orqali QR-kod qo‘yiladigan elektron sertifikatga hamda 3 yil davomida tegishli yo‘nalishda faoliyat yuritish huquqiga ega bo‘ladi.

Bugungi kunga qadar institut tomonidan jami 12924 nafar mutaxassislar o‘qitildi, malaka oshirish kursini tamomlaganlardan 7426 nafariga sertifikat berildi.



1-rasm. Vazirlik huzuridagi Kompetensiyani rivojlantirish instituti malaka oshirish kurslarida o'qigan tinglovchilar to'g'risida ma'lumot.

“Yangi Toshkent” qurilishi “Yangi O'zbekiston”dagi tarixiy loyiha hisoblanib, 38 ta quruvchi kasblari bo'yicha 10 mingdan ortiq ishchi kasb egalari va mutaxassislarni talab etadi. Ayniqsa:

- Betonchi;
- Suvoqchi;
- Santexnik;
- Elektrik;

- G'isht teruvchi va boshqa kasblarga ehtiyoj yanada yuqoriligi Respublikamizda qurilish sohasi bo'yicha kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga oshib borishini ko'rsatmoqda.

Joriy yil sohada kadrlar salohiyatini oshirishga ham katta e'tibor qaratiladi. Bunda avvalo ishchi-kasb egalari razryad berish tizimi yo'lga qo'yiladi. Ya'ni, ishchi-quruvchilar sohaga oid texnikumlar, kasbga tayyorlash va kasbiy ko'nikmalar markazlarida o'qitiladi va ularga razryad beriladi. Ana shunday razryadga ega korxonaning har bir ishchisi uchun “Shaffof reyting” tizimida alohida rag'bat bali beriladi. Ish haqini to'lashda ham razryadga alohida ustama to'lash ko'zda tutiladi. Bu esa sohada malakali mehnat bozorining shakllanishiga hamda xorijiy bozorga chiqish imkoniga ega korxonalarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari sohada kamida 3 yil faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni Kompetensiyani rivojlantirish institutida maxsus magistraturada o'qitishni yo'lga qo'yish ham reja qilingan. Bunda ushbu o'qitish dual-ta'lim tizimi asosida amaliyotga yo'naltiriladi.

Loyiha faoliyatini takomillashtirish va transformatsiya qilish ham ustuvor vazifa etib belgilandi. Bunda loyiha tashkilotlariga litsenziya berishda mutaxassislar malakasiga bo'lgan talab kuchaytiriladi va ular haqida ma'lumotlarni oliy ta'lim va mehnat tizimlaridan integratsiya orqali olish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, reyting tizimida ham loyihachi mutaxassislarga malaka talabini alohida baholashga e'tibor berilib, ball mezonlari qayta ko'rib chiqiladi.

Yana bir yo'nalish – kommunal xo'jaligi sohasini rivojlantirish, tizimlarni modernizatsiya qilish va raqamlashtirishdir.

Xususan, ko'p qavatli uylarni boshqarish tizimi ham to'liq raqamlashtirilib, umumiy yig'ilishlar, hisobotlar, shikoyatlar va dispetcherlik xizmatlari raqamli ko'rinishga o'tkaziladi.

Aholining murojaatlari to'liq "Mening uyim" tizimi orqali boshqaruv-servis kompaniyalariga yuboriladi va vazirlik tomonidan ularning ijrosi kuzatib boriladi. Ushbu kompaniyalar faoliyati yuzasidan aholining shikoyat va mulohazalari mazkur tizim orqali qabul qilinadi hamda shu asosda ularning reytingi shakllantiriladi. Bundan tashqari ko'p kvartirali uylarning liftlarini boshqarish va monitoring qilish bo'yicha "Xavfsiz lift" yagona idoralararo platformasi ishlab chiqildi. Shuningdek, ko'p qavatli uylardagi 9 183 ta lift texnik ko'rikdan o'tkazilib, ular bo'yicha pasport va muvofiqlik sertifikatini joriy etiladi. Shu asosda kelgusi 3 yilda 2 001 ta lift yangilanadi va 382 tasi ta'mirlanadi.

Bundan tashqari "Turar joy" milliy axborot idoralararo tizimi platformasini to'liq ishga tushirish orqali ko'p kvartirali uylarning texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik tarixda yangilanib borilishiga va real vaqt holatida ko'p kvartirali uylarning ma'lumotlarini shakllantirilishiga erishildi.

Shuningdek platforma tomonidan uylarning texnik holati bo'yicha kapital ta'mirtalab qizil toifa, ta'mirtalab sariq toifa va yaxshi holatdagi yashil toifalarga ajratiladi.

Mazkur platforma orqali pasportlar asosida ta'mirlanadigan yoki renovatsiyaga tushadigan uylar ro'yxati shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi PQ-100-son qaroriga asosan issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish maqsadida bir qator vazifalar belgilangan.

Jumladan:

Markazlashgan issiqlik ta'minotini modernizatsiya qilish va rivojlantirish yo'nalishida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va yangi tashkil etiladigan "Issiqlik ta'minoti" AJ bilan birgalikda:

- ko'p kvartirali uy-joylar va ijtimoiy soha muassasalariga 8 681 ta individual issiqlik punktlarini o'rnatish (2025-yilda 480 ta) orqali markazlashgan issiqlik ta'minotini "yopiq tizim"ga o'tkazish;

- issiqlik tizimlaridagi eskirgan 103 ta qozonxona va 1,6 ming km issiqlik tarmoqlarini, shu jumladan, 2025-2026-yillarda 18 ta qozonxona va 258 km issiqlik tarmoqlarini yangilash;

- 2025-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 320 mlrd.so'm hamda "yopiq tizim"ga o'tkazish uchun qo'shimcha 50 mlrd. so'm mablag'lar ajratilishi belgilandi.

Bundan tashqari ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashda yangicha tizim sifatida davlat ijtimoiy buyurtma loyihalari amalga oshiriladi. Ya'ni, xususiy sektorni ijtimoiy sherik sifatida jalb qilgan holda olis hududlarda ichimlik suvi inshootlari va tarmoqlari barpo etiladi. Ushbu maqsadlar uchun har yili byudjetdan 50 mlrd so'm mablag' ajratish ko'zda tutilmoqda.

Oliy va o'rta maxsus professional ta'lim darajasida kadrlar tayyorlaydigan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti shuningdek, Olmaliq qurilish va kommunal xo'jaligi va Xorazm qurilish va kommunal xo'jaligi texnikumlari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashiga tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi.

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.	11111004	O'zbekiston Respublikasi Vaziri
2.	11111007	O'zbekiston Respublikasi vaziri o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlari va o'rinbosarlari
3.	11140002	Assotsiatsiya, federatsiya, konfederatsiya, filial, birlashma, ittifoq, jamoat tashkiloti departamenti (boshqarma, bo'lim) boshlig'i (mudiri)
4.	13230001	Bosh arxitektor
5.	13230007	Loyiha bosh arxitektori
6.	13212026	Qozonxona boshlig'i (direktori)
7.	13230010	Loyiha bosh muhandisi (qurilishda)
8.	13230011	Loyiha bosh texnolog (qurilishda)
9.	13213004	Ichimlik suvi tizimi boshlig'i
10.	13213005	Nasos stansiyasi boshlig'i (suv ta'minoti xo'jaligida)
11.	13230021	Uy-joy kommunal boshqarma (bo'lim, xo'jalik, idora) boshlig'i
12.	13230016	Qurilishda (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
13.	21610001	Arxitektor
14.	21432002	Oqova suvlarni tozalash bo'yicha muhandis
15.	13230013	Qo'shma uy-joy ko'chmas-mulk boshqaruvchisi
16.	21415003	Metrologiya bo'yicha muhandis
17.	13214008	Suv oqava tarmoqlari ekspluatatsiyasi bo'yicha tuman boshlig'i
18.	13230023	Xo'jalik (uy-joy kommunal, reagent, ombor va boshqalar) boshlig'i
19.	13214009	Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligi avariya-dispatcherlik xizmati boshlig'i
20.	31329004	Sanitar-texnik tizimlari montajchisi
21.	31329006	Suv va kanalizatsiya tizimlarini montaj qilish, foydalanish va ta'mirlash texnigi
22.	31121004	Texnik-arxitektor
23.	71269009	Turar joy va kommunal xo'jaligi ustasi (House master)
24.	31151010	Ko'tarish inshootlari mexanigi
25.	31151009	Ko'tarish inshootlari elektromexanigi
26.	31310006	Bug'-gaz qurilmasiga xizmat ko'rsatish operatori
27.	31322003	Maxsus suv tozalash operatori
28.	21513005	Issiqlik texnikasi jihozlaridan texnik foydalanish bo'yicha muhandis
29.	21512013	Qozonlar va issiq suv quvurlari nazorati muhandisi
30.	74129069	Quvur o'rnatish montajchisi

31.	74110011	Qurilish elektrigi
32.	71264004	Sanitar-texnik tizimlar va qurilmalar montajchisi
33.	71190027	Qurilish konstruksiyalarini o'rnatuvchi
34.	72119009	Qoliplash aralashmalari tayyorlash uchastkasi brigadiri
35.	31324001	Oqava suv xo'jaligida suv o'tkazishni masofadan turib boshqarish pulti operatori
36.	72335014	Issqlik ta'minoti inshootlari jihozlarini ekspluatatsiya va montaj qilish bo'yicha ustasi
37.	71190005	Binolarning yuqori qismlarini saqlash va ta'mirlash bo'yicha ishchi
38.	43220003	Dispetcherlik xizmati operatori
39.	31329005	Suv to'sish inshootlari operatori
